



## AQLIY RIVOJLANISHIDA NUQSONI BO‘LGAN O‘QUVCHILARNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI

**Yadgarova Yulduz Sharipovna,**  
*ChDPU Maxsus pedagogika kafedrasida o‘qituvchisi*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18643204>

***Annotatsiya.** Mazkur tadqiqotda aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi. Ushbu toifadagi bolalarning bilish jarayonlari: idrok, diqqat, xotira, tafakkur. emotsional-irodaviy sohasi hamda ijtimoiy moslashuv darajasidagi o‘ziga xosliklari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Aqliy rivojlanishida nuqson, intellektual rivojlanish buzilishi, psixologik xususiyatlar, pedagogik yondashuv, bilish jarayonlari, emotsional-irodaviy soha, korreksion-rivojlantiruvchi ta‘lim.*

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning tarbiyaviy-pedagogik jarayoni ularning psixologik va kognitiv xususiyatlarini chuqur tahlil qilishga asoslanadi. Bu jarayonda bolalarning intellektual rivojlanishi, diqqat va xotira faoliyati, tafakkur hamda o‘quv motivatsiyasi alohida e‘tiborga olinadi. Shu bilan birga, ularning o‘quv jarayonida faol ishtirok etishini ta‘minlash pedagogik strategiyalarni aniqlash uchun zarur shart hisoblanadi.

Aqliy zaif bolalar ko‘pincha murakkab psixologik va pedagogik yordamga muhtoj bo‘lib, ularning rivojlanish imkoniyatlarini maksimal darajada ro‘yobga chiqarish uchun individual yondashuv asosida ishlab chiqilgan maxsus ta‘lim metodikalarini qo‘llash zarur hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, bunday bolalarga beriladigan ta‘limning asosiy vazifasi — ularning mavjud intellektual salohiyatini to‘liq aniqlash, mustahkamlash va hayotga moslashuv qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Shu sababli, ushbu maqolada aqli zaiflik tushunchasining ilmiy asoslari, psixopedagogik xususiyatlari va ularga mos ta‘lim-tarbiyaviy yondashuvlar, metodlar va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati yoritiladi.

Aqli zaiflik ya‘ni intellektual nogironlik — bu shaxsning umumiy aqliy salohiyati va adaptiv xatti-harakatlarida sezilarli cheklovlar mavjud bo‘lishi bilan tavsiflanadigan rivojlanish nuqsonidir. Ushbu holat, odatda, 18 yoshgacha namoyon bo‘ladi va shaxsning kognitiv faoliyatida – masalan, o‘ylash, mantiqiy fikrlash, muammolarni hal qilish va o‘rganish qobiliyatida – yetarli darajada rivojlanmaganlik bilan belgilanadi. Intellektual nogironlik tashxisini qo‘yishda asosiy mezonlardan biri bu intellekt koeffitsienti (IQ) hisoblanadi; odatda IQ darajasi 70 va undan past bo‘lsa, bu aqli zaiflik belgisi sifatida qabul qilinadi. Biroq faqat IQ ko‘rsatkichigagina asoslanish



etarli emas, chunki tashxis qo'yishda shaxsning kundalik hayotda mustaqil faoliyat yurita olish darajasi – ya'ni adaptiv xatti-harakatlar ham muhim rol o'ynaydi<sup>1</sup>.

Aqli zaiflik darajalari turlicha bo'lib, ular odatda to'rtta asosiy guruhga bo'linadi: yengil, o'rta, og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik. Yengil darajadagi aqli zaiflikka ega bo'lgan bolalar oddiy hayotiy ko'nikmalarni shakllantira oladi va minimal pedagogik yordam bilan mustaqil yashashga o'rganadi. O'rta darajadagi bolalar esa oddiy muloqotda bo'lishi mumkin, biroq ularga kundalik hayot faoliyatida doimiy nazorat va yordam zarur bo'ladi. Og'ir va chuqur darajadagi aqli zaiflik esa bolaning rivojlanishida keskin cheklovlarni yuzaga keltirib, uning mustaqil harakat qilish, o'z ehtiyojlarini ifoda eta olish va ijtimoiy munosabatlarga kirishish qobiliyatini deyarli butunlay yo'qqa chiqaradi. Har bir darajada bolaning nutq rivoji, diqqat, xotira, emotsional holat va ijtimoiy moslashuv darajasi sezilarli farq qiladi, bu esa ularning ta'lim olish imkoniyatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aqli zaiflikning kelib chiqishiga sabab bo'ladigan omillar ko'p qirrali bo'lib, ular biologik va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi. Biologik sabablarga genetik buzilishlar masalan, Daun sindromi, Frajil X sindromi, homiladorlik davridagi virusli infeksiyalar masalan, qizamiq, toksoplazmoz, toksik ta'sirlar masalan, spirtli ichimliklar yoki dorilarning nojo'ya ta'siri, shuningdek, tug'ruq paytidagi asoratlar masalan, kislorod yetishmovchiligi, erta tug'ilish kiradi. Ijtimoiy va muhit omillariga esa bolaning erta yoshdagi e'tiborsizlik, pedagogik beparvolik, zo'ravonlikka uchrashi yoki rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy sharoitlar kiradi. Aqli zaiflikning sabablari ko'pincha murakkab bo'lib, bir nechta omillarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Shu sababli har bir bolaga individual yondashuv, kompleks tibbiy, psixologik va pedagogik tekshiruvlar asosida yordam ko'rsatish zarur bo'ladi.

Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar intellektual faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'lib, bu ularning bilim olish, fikrlash va muammolarni hal qilish jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Ularning umumiy intellekt darajasi sog'lom bolalarga nisbatan past bo'lishi mumkin, bu esa o'quv jarayonida ba'zi mavzularni tushunishda qiyinchiliklar yuzaga kelishiga olib keladi. Shu bilan birga, intellektual faoliyatning ayrim tarmoqlari, masalan, vizual idrok yoki amaliy tafakkur, boshqalarga nisbatan kuchli rivojlangan bo'lishi mumkin, bu esa bolalarga o'ziga xos individual yondashuvni talab qiladi. Misol uchun, ayrim bolalarda vizual idrok sezilarli darajada rivojlangan bo'lib, ular rasm, diagramma, modellash yoki ko'rgazmali ko'rsatmalar orqali ma'lumotni tez va samarali o'zlashtiradi. Shu bilan birga, ularning matnli ma'lumotni qayta ishlash, yozma topshiriqlarni bajarish yoki abstrakt tushunchalarni

<sup>1</sup> Lee, M. J. W., & Bower, M. (2023). Artificial Intelligence in Inclusive Education: Opportunities and Challenges. *Computers & Education: Artificial Intelligence*, 1–14. <https://doi.org/10.1016/j.caeai.2023.100112>



tushunish qobiliyatida sekinlashuv kuzatiladi. Bu holat ko‘pincha psixologik va pedagogik monitoring orqali aniqlanadi, va pedagoglarga individual tarzda ish yuritish imkonini beradi.

Shuningdek, intellektual rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ma‘lumotlarni segmentlarga ajratish, vizual ko‘rsatkichlar, rangli diagrammalar va konkret misollar yordamida tushuntirish juda muhimdir. Masalan, matematik tushunchalarni o‘rgatishda raqamlar va shakllarni rangli kartochkalar orqali taqdim etish, biologiya fanida hayvonlar yoki o‘simliklarni rasmi tasniflash ishlari bolaning amaliy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shu tarzda, mavzularni konkretlashtirish bolalarning intellektual imkoniyatlarini maksimal darajada uyg‘unlashtiradi.

Aqli zaif bolada emotsiyaning yuzaga kelishi uning yoshi, kamchilikning chuqurligi va o‘ziga xosligi ijtimoiy muhitga bog‘liq bo‘ladi. Bog‘cha yoshidagi bolalar maqto‘v, ma‘qullash, erkalashga moyil bo‘ladi. Erkalash va qo‘pol intonatsiyani ajratadilar. O‘z munosabatini ular insonlarga yaqinlashish, jilmayish bilan bayon etadilar. Bolalar kattalar bilan qiziqib o‘ynaydilar va shunga mos ovoz chiqaradilar. Masalan, bola mashinani o‘ynaganda «bi-bi» deb ovoz chiqaradi.

Aqli zaif bog‘cha yoshidagi bolalarda emotsiyalarini rivojlantirish, ular hayotini, maxsus pedagogik ta‘sir ko‘rsatish asosida amalga oshiriladi. Aqli zaif bolalarda emotsional doirani rivojlantirish tashqi shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu maxsus ta‘lim va bolalar hayotini to‘g‘ri rejalashtirishdir. Bunday o‘quvchilarga g‘am, alam, xafagarchilik va xursandchilikning impulsiv ko‘rinishlari xosdir. Bu holatlar ta‘lim-tarbiya jarayonida silliqlashadi, bolalarda ijtimoiy adaptatsiya uchun zarur xulq-atvor shakllanadi.

Maxsus maktabdagi ta‘lim jarayonida aqli zaif o‘quvchilarning irodaviy regulatsiyasi rivojlantiriladi; o‘z impulsiv reaksiyalarini boshqarish va shart-sharoit talablariga bo‘ysunish malakasi shakllanadi. (M.G. Sarsidze). Korreksion yo‘naltirilgan ta‘lim ta‘siri ostida shakllanuvchi irodaviy faollik ma‘lum darajada bu turdagi bolalarning aqliy, nutqiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Diqqat hajmi, uning qat‘iyligi ortadi, hotira doirasi kengayadi, uning samaradorligi oshadi, o‘z navbatida tafakkur, nutq, xotirani rivojlantirish oligofren o‘quvchilar shaxsining irodaviy xususiyatlari shakllanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kichik yoshdan yuqori maktab yoshigacha aqli zaif bolalarda ixtiyoriy ruhiy jarayonlarning ixtiyoriy rivojlanishi kuzatiladi.

Aqli zaif bolalarning o‘z-o‘zlariga baho berish xususiyatlari shaxs shakllanishining asosiy omillaridan biri — aqli zaif bolalarning o‘z imkoniyatlariga to‘g‘ri baho berish xislatlarining shakllangan bo‘lishidir. Baholashga kishilar, narsalar,



holatlar jalb etilishi mumkin. O'z-o'zini baholashda kishining o'z aloqalarini, harakatlarini; sifatlarini, qilgan ishlarini, yutuqlarini baholash tushuniladi.

O'z-o'zini baholashning shakllanishi atrofdagilarning baholashlari, o'z faoliyat natijalarini ko'rishlari natijasida amalga oshib boradi. O'quvchilarda o'z-o'zlarini baholashlari turli topshiriqlarni bajarish jarayonlarida to'planib boradi. Bu jarayon bolalar ish faoliyatining natijalarini baholab boruvchi o'qituvchining roli juda katta. Aqli zaif bolalarda o'zlarini anglashlari birmuncha pasayganligi sababli, ish natijalarini ham birmuncha noto'g'ri baholaydilar. Shuning oqibatida o'z faoliyatlarini to'g'ri tahlil qila olmaydilar. Bularning barchasi aqli zaif bolalarda o'z-o'zlariga baho berishning o'ziga xos shakllanishiga olib keladi. Maxsus tekshirishlar natijasida yordamchi maktablarning turli sinflarida bolalarning o'z-o'zlarini baholashlari haqidagi ma'lumotlar olingan. Kichik sinflarda o'z-o'zlariga baho qo'yish ba'zan past, ba'zan esa yuqori bo'lar ekan. O'rta sinflarda o'z-o'zlariga baho berishlari birmuncha o'z imkoniyatlariga to'g'ri kelar ekan. Yuqori sinflarda esa, o'z-o'zlariga baho berish nisbatan yuqori bo'lar ekan. Kichik sinflardagi o'quvchilarning o'z imkoniyatlarga to'g'ri baho bermaslikning sababi, birinchidan, shaxsning shakllanmaganligi, faoliyat maqsadlarini tushunmaslik, mehnat natijalarini to'g'ri tahlil qila olmasliklaridir. Yuqori sinflardagi o'quvchilar o'z imkoniyatlariga yuqori baho berishning asosiy sababi, o'zlaridagi nuqsonni kamaytirish va o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olmaslikdir. Nuqsonli bolalarda nuqson mazmuniga ko'ra o'z imkoniyatlariga yuqori va past baho berish xosdir. Bosh miyada qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlari birmuncha turg'un bo'lgan oligofrenlarda ta'lim-tarbiya jarayonlarida o'z imkoniyatlariga to'g'ri baho berish hollarini ko'rish mumkin. Hissiy jihatdan birmuncha «kambag'al» bo'lgan aqli zaif bolalarda har qanday murakkablikdagi topshiriqlar bilan ulardagi noto'g'ri tasavvurlarini to'g'rilash qiyin. Shuning oqibatida aqli zaif bolalar o'z faoliyatlarini to'g'ri rejalashtira olmaydilar, faoliyat natijalarini ko'ra bilmaydilar. Umuman baho va o'z-o'zini baholash aqli zaif bola shaxsining tuzilishida eng asosiy qismni tashkil etadi.

Aqli zaif bolalarga barcha faoliyat turlarining kech va to'liqsiz shakllanishi xarakterlidir. Bu tafakkur va nutqning ma'lum darajadagi rivoji, qobiliyat, diqqat va o'zining irodaviy xatti-harakatlarini maqsadga yo'naitirish malakasiga bog'liq bo'ladi. Amaliy harakatlarni talab etuvchi faoliyat turi harakat doirasi rivojlanishidagi nuqsonlarning mavjudligi sababli qiyinchilik bilan amalga oshadi. O'z-o'ziga xizmat, ovqat yeyish kabi oddiy predmet-amaliy faoliyat turi ham aqli zaif o'quvchilarda qiyinchilik tug'diradi. Ma'lum malaka va ko'nikmalarni bu bolalarda tarbiyalash uchun uzoq muddatli maqsadga yo'naltirilgan ta'lim talab etiladi. Ular harakatlar ketma-ketligini tez unutadilar, ularning ahamiyatini tushunmaydilar.



Shuning uchun barcha egallagan bilimi kattalar yordamida so'zlar vositasida o'zaro faoliyatda takrorlanib turishi talab etiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mamedov K., Shoumarov G'., "Aqli zaif bolalar oila psixologiya" T.: O'qituvchi. 1994–109 b.
2. Mo'minova L.R. Oilada nogiron va yordamga muxtoj bolalar xaqida. Oila kutubxonasi. T.: 1999.
3. Pulatova P.M. Maxsus pedagogika (Oligofrenopedagogika.).T.: Adabiyot va san'at, 2005. –43 b.
4. Xakimova M.F. Maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashning pedagogik asoslari(aqli zaif o'quvchilar misolida): ped. fan. dok. diss. avtoref.–T.: 2010.–41 b.
5. Xamidova M. Aqli zaif o'quvchilar lug'at boyligini oshirishning korreksion-pedagogik asoslari. P.f.n. diss. avtoref.–T.: 2001.–20 b.
6. Shomahmudova R., T.Ziyodova. Maxsus maktablarda o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. –Toshkent.: 2002. –24 b.
7. Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'lim. –T.: Chashma print, 2011.

